

## SHAXS SO'ROVNOMLARINI MOSLASHTIRISHNING METODIK MASALALARI

**G'ulomqodirov Eldorjon Axmadjon o'g'li**

*Toshkent davlat texnika universiteti*

*Qo'qon filiali psixologiya fani o'qituvchisi*

**Annotasiya:** *Mazkur maqolada psixologik tadqiqotlarda shaxs haqida ma'lumot olishda shaxs so'rovnomalariining tutgan o'rni, ularni etnomadaniy jihatdan moslashtirishning metodik masalalari va psixometrik talablari bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *shaxs so'rovnomalari, etnik muhit, adaptatsiya, psixodiagnostik talablar.*

Psixodiagnostikada shaxs so'rovnomalari va testlarini etnik muhitga moslashtirish masalasi o'tgan asrning 70-yillarida ancha jonlana bordi. Chunki, ta'lim, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish amaliyotida yetarlicha psixodiagnostik vositalar mavjud emas edi. Shuning uchun ko'pchilik, psixologlar asosiy e'tiborni xorij testlari va shaxs so'rovnomalariini moslashtirish masalasiga e'tibor qaratishgan. Biroq, psixodiagnostik metodikalar va shaxs so'rovnomalariini etnik muhitga moslashtirish ishlari murakkab jarayon hisoblangani bois, ko'pchilik tadqiqotchilar ayrim mezonlarni e'tibordan chetda qoldirganlar. Oqibatda, ko'plab testlar va shaxs so'rovnomalariidagi ayrim kamchiliklar hanuzgacha, tadqiqotchilar tomonidan bahsbop mavzu sifatida e'tirof etib kelinmoqda.

Bundan tashqari, ayrim test va shaxs so'ronomalariining asl mualliflari hozirga qadar noma'lum bo'lib ham kelmoqda. N.A.Baturinning aytishicha, psixodiagnostika sohasida xorij testlari va shaxs so'rovnomalariini mahalliy muhitga moslashtirish (adaptatsiya) qilish ishlari 1970-yillardan boshlangan 1980-yillarga kelib, ushbu ishlar ancha tizimga keltirildi . O.V.Belovaning so'zlariga ko'ra, metodika va shaxs so'rovnomalariini moslashtirish masalasi uzluksiz jarayon sanalib, uning zarurati psixologik tadqiqotlarning maqsadi va vazifalari bilan oshib boraveradi .

Mohiyatan, "adaptatsiya" tushunchasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "moslashtirish" degan ma'noni anglatadi. Zamonaviy psixidagnostik adabiyotlarda moslashtirish tushunchasi -adaptatsiya tushunchasi bilan tilga olinadi. Yani shaxs so'ronomalariini adaptatsiya qilish ishlari – ulardan yangi sharoitlarda foydalanishning adekvat chora-tadbirlari to'plami hisoblanadi. A.G.Shmelevning fikricha, shaxs so'rovnomalariini mahalliy muhitga moslashtirish ishlari quyidagi bohqichlarni o'z ichiga oladi :

– shaxs so'rovnomasining asl nusxasidan ikkinchi tilga tarjimasini yoki uning dastlabki namunasini tayyorlash bosqichi;

– so'rovnomaning dastlabki tilini yaxshi biladigan tilshunoslar va professional psixologlar orqali, tarjima qilinayotgan shaxs so'rovnomasining mazumnini ekspertlar tomonidan baholanish bosqichi;

– shaxs so'rovnomasining asl nusxasini eksperimental ekvivaletligini tekshirish bosqichi;

– yangi namunadagi shaxs so‘rovnomasiga yangi shakallarni kiritish va mahalliy meyerlarni hisobga olish bosqichi va boshqalar.

D.Y.Raygorodskiyning ta‘kidicha, adaptatsiya qilinayotgan shaxs so‘rovnomalari quyidagi psixodiagnostik talablarga javob bera olishi lozim :

1.Shaxs so‘rovnomasi haqida batafsil ma‘lumotning mavjudligi va tarkibining batafsil tavsifi;

2.So‘rovnoma natijalarini qayta ishlash haqidagi ma‘lumotning mavjudligi;

3. So‘rovnoma shkalalarining tavsifi;

4. Shaxs so‘rovnomasi haqida ma‘lumotlarning ishonchligi;

5.So‘rovnoma muallifi va uni qay tarzda ishlatish yuzasidan yo‘riqnomaning aniqligi va hokazo.

Yuqorida keltirilgan mezonlarning shaxs so‘rovnomalarida yetishmasligi, keyinchalik undan foydalanishdagi qiyinchiliklar va natijalarni baholashda noaniqliklarni yuzaga keltiradi.

Shaxs so‘rovnomalarini psixologik tadqiqotlar uchun moslashtirish ishlari, keng qamrovli chora-tadbirlarni talab etib, bunda asosan so‘rovnomaning asl nusxasi tiliga ko‘proq e‘tibor beriladi. Shuning uchun, har bir tadqiqotchida shaxs so‘rovnomalarining asl tildagi nusxasi ham qo‘shimcha ravishda saqlanishi maqsadga muvofiq sanaladi.

L.F.Burlachukning aytishicha, shaxs so‘rovnomalarini moslashtirish ishlarida “lingvistik” mezon ham farqlanib, unda so‘rovnoma yaratilgan til muhiti e‘tiborga olinadi. Ya‘ni so‘rovnomaning tili, aholining yoshi, ma‘lumoti, madaniy muhiti bilan hamohang tarzda nashr etilishi lozim . Misol uchun inglizlar, nemislar, slovklar biror kishiga murojaat qilganlarida, ularni mahalliy til muhiti va xarakterini tushunmagan inson javob berishda qiyinaladi. Bu holat tadqiqotlarda tekshiruvchilarda ham qayd etilishi mumkin.

Shaxs so‘rovnomalarining “lingvistik” talabi ularning uzoq muddatli yoki qisqa muddatli yashovchanligini ta‘minlashga keng xizmat qiladi. Qolaversa, har bir shaxs so‘rovnomasi uchun mulk huquqi, uni takomillashtirish ishlari doim nazoratda bo‘lishi lozim. Xorijda har bir ishlab chiqilgan shaxs so‘rovnomasi uchun psixodiagnostik sertifikat mavjud bo‘lib, u faqat muallifga beriladi. Ammo ushbu holat, barcha mamlakatlarda aytarli darajada emas. Ba‘zi davlatlarda mazkur holat bilan bog‘liq ko‘plab qoida buzish holatlarini ko‘rish mumkin.

L.N.Sobchakning aytishicha, shaxs so‘rovnomalarini ishlab chiqishning eng keng tarqalgan mezonlaridan biri bu, yangi me‘yorlarni olish bochiqichidir. Ya‘ni bu psixometrik mezon o‘z turga ajaratiladi :

1. So‘rovnoma normalarining kengayishi. Ko‘plab savolnomalar tadqiqotlarda cheklangan guruhlarda amalga oshiriladi. Yangi yaratilgan shaxs so‘rovnomalari bunga yaqqol misoldir. Mazkur mezonga muvofiq, psixolog so‘rovnomadan foydalanish jarayonida me‘yoriy-huquqiy bazani to‘ldirish va kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Maslan tekshiriluvchilar to‘g‘risidagi xususiyatlar, ma‘lumotlar, ijtimoiy-demografik belgilar, kasbiy faoliyatiga oid ma‘lumotlar shular jumlasidandir. Ushbu qoida yangi yaratilgan

psixodiagnostik darsliklarda standartlashtirish uchun dastlabki namuna deb ham deb ta'riflanadi.

2. So'rovnomaning uzoq muddatli mavjudligi uchun zaruriy shart sanalib - bu normalarni yangilash bilan xarakterlanadi. Mazkur vazifa doimiy ravishda amalga oshirilishi lozim, chunki so'rovnoma normalari vaqt o'tishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Masalan, so'nggi o'n yillikda bolalar va kattalarning kognitiv funksiyalari rivojlanishi ancha o'smoqda. Shuning uchun, xorijda yangi ishlab chiqilgan shaxs so'rovnomalari har o'n yilda, normalar jihatdan qayta ko'rib chiqiladi.

Psixodiagnostika sohasida yetakchi tadqiqotlar olib borgan olim S.P.Elshanskiyga ko'ra, biror bir shaxs so'ronomasini yangi muhitga moslashtirish quyidagi metodik talablarni o'z ichiga oladi :

– so'rovnoma mazumning ichki validlilikni tahlil etish, ya'ni so'rovnomaning tashkil etuvchi narsalarning izchilligi. Ichki validlilikni tahlil qilish bir o'zgaruvchan va ko'p o'zgaruvchan testlarda qo'llaniladi. Bu holat bir xil bo'lmagan shkalalarga nisbatan ma'lumotlarni tekshirishga imkon beradi;

– so'rovnomaning tadqiqotlarga chidamliligini tekshirib ko'rish. Bu mezon vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadigan xususiyatlarni aniqlash uchun foydalaniladi;

– so'rovnoma shkalalarini qayta standartlashtirish. Ushbu bosqichda turli xil diagnostik toifalarni ajratib turadigan sinov ballari shkalasidagi chegara oraliqlari tekshiriladi. Demak, obyektiv va subyektiv omillar tufayli ular turli submadaniyatlarda turlicha bo'lishi mumkin (masalan, mentalitet, qadriyatlar tizimi, intellekt darajasi va hokazo);

– shkalalar o'rtasidagi munosabatlarni takrorlanuvchanligini tekshirish. Ushbu bosqichda so'rovnomaning standartlashtirilgan namunasidan jins, yosh yoki kasbiy va madaniy xususiyatlar bo'yicha farqlar yangi muhit sharoiti bo'yicha tekshirib ko'rilishi lozim;

– so'rovnomaning amal qilish muddati, agar uning mazmuniga kasbiy yoki mintaqaviy xususiyatlar ta'sir etadigan bo'lsa, qayta belgilanadi;

– so'rovnomaning belgilangan normalarga muvofiqligi. amal qilishning natijasini olganda so'ng, namuna kengaytiriladi va so'rovnoma natijalarining empirik taqsimoti qayta tiklanadi. Umuman olganda psixodiagnostika fanida har qanday test yoki metodika, shaxs so'rovnomalari psixometrik mezonlar sanalgan validlilik, ishonchilik, retest o'tkazish kabi mezonlar orqali ishlab chiqiladi. Biroq, ushbu mezonlar haqida ko'plab fikr-mulohazalar, yondoshuvlar mavjud bo'lib, bu psixometrik talablarni aksariyatini psixolog tadqiqotlchilar yaxshi bilishadilar.

Umuman olganda, shaxs so'rovnomalarini mahalliy muhitga tadbiq etish, ularni modifikatsiya qilish ishlari keng qamrovli ish sanalib, u mutaxassis shaxsidan o'ziga ko'plab xos kasbiy kompetensiyalarni talab etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Батурин Н.А. Методы контроля за качеством психодиагностических методик на основе стандарта требований к психодиагностическим методикам / Н.А. Батурин, А.Ю. Попов // Вестник ЮУрГУ. Серия «Психология». - 2010. - Вып. 10. - № 27 (203). - С.7 -8
2. Белова О. В. Общая психодиагностика: методические указания / О.В. Белова. - Новосибирск: Научно-учебный центр психологии НГУ, 1996. – С.45.
3. Шмелев А. Г. Основы психодиагностики: Учебное пособие для студентов педвузов / А.Г.Шмелев. — Москва, Ростов-на-Дону: «Феникс», 1996. – С.78.
4. Райгородский Д.Я. Практическая психодиагностика. Методики и тесты: Учебное пособие / Д.Я. Райгородский. – Самара: ИД «БАХРАХ», 1998. – С.58.
5. Бурлачук Л.Ф. Введение в проективную психологию / Л.Ф. Бурлачук. – Киев: Ника – Центр; Вист – С, 1997. – С.95.
6. Собчак Л.Н. Стандартизированный многофакторный метод исследования личности. СПб., 2004. – С.78.
7. Елшанский С.П., Ануфриев А.Ф., Камалетдинова З.Ф., Сапарин О.Е., Семенов Д.В. Психометрические показатели русскоязычной версии теста «Опросник смысла жизни» (MLQ) // Психология, социология и педагогика. 2015. № 10 (49). С. 85 – 96.